

RESEARCH ARTICLE

## Linguopoetic Features Of Li Bo's Poems

Dilafuz Sodiqova

Independent researcher Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 166-168

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

### Abstract

This article offers a comprehensive analysis of the linguopoetic features found in the poetry of the great Chinese poet Li Bo (李白; 701 — 763). It meticulously examines the artistic functions of phonetic-phonological (e.g., alliteration, assonance, rhyme), lexical-semantic (e.g., vivid imagery, metaphors, hyperboles), and syntactic (e.g., parallelism, ellipsis) devices employed in his verses. Drawing on specific examples, the study substantiates the aesthetic potential of language and its pivotal role in poetry through rigorous linguistic and poetic analytical methods.

### KEY WORDS

Linguopoetic analysis, alliteration, assonance, syntactic parallelism, antithesis, chiasmatic construction, artistic image.

### INTRODUCTION

Tang sulolasi (618-907 yillar) Xitoy adabiyoti tarixida she'riyatning oltin davri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrning eng yorqin yulduzlaridan biri, shubhasiz, "She'riyatning abadiy dohiysi" (诗仙 - shīxiān) nomi bilan mashhur bo'lgan Li Bo (李白, 701-762) hisoblanadi. Uning ijodi Xitoy adabiy tilining eng yuqori poetik salohiyatini namoyon etadi. Li Bo she'riyatining o'ziga xos jozibasiga faqatgina mavzularining teranligi yoki tasvirlarining ulug'vorligida emas, balki til vositalaridan foydalanish mahoratida, ya'ni uning lingvopoetik xususiyatlarida mujassamdir. Lingvopoetika tilshunoslikning badiiy matnlardagi til birliklarining estetik va ekspressiv funksiyalarini o'rganuvchi sohasidir. Ushbu maqola Li Bo she'rlarining fonetik, leksik-semantik va sintaktik darajadagi lingvopoetik xususiyatlarini misollar yordamida tahlil qilishni, ularning badiiy ta'sir mexanizmlarini ilmiy xulosalar bilan asoslashni maqsad qilgan.

Li Bo she'riyatining fonetik-fonologik xususiyatlari uning ohangdorligini, musiqiy ritmini va esda qolarli bo'lishini ta'minlaydi. Xitoy klassik she'riyatida, ayniqsa Tang davri she'riyatida, tonal sistema va qofiya (韵 - yùn) qoidalari katta

ahamiyatga ega. Garchi Xitoy tilidagi alliteratsiya va assonans hodisalari flektiv (qo'shimchalar) tillardagidek yaqqol bo'lmasa-da, ma'lum darajada tovush takrorlari ham estetik funksiya bajaradi. Li Bo she'rlarining aksariyatida an'anaviy qofiya qo'llaniladi, bu ularga ma'lum bir ritmik tuzilma va ohangdorlik baxsh etadi. Qofiyalar odatda har bir to'rtlikning ikkinchi va to'rtinchi qatorida (ba'zida birinchi qatorida ham) kuzatiladi.

Li Bo, " Wang Lunga tuxfa" (赠汪伦 - Zèng Wāng Lún)

李白乘舟将欲行 (Lǐ Bái chéng zhōu jiāng yù xíng)

忽闻岸上踏歌声 (Hū wén àn shàng tà gē shēng)

桃花潭水深千尺 (Táo huā tán shuǐ shēn qiān chǐ)

不及汪伦送我情 (Bù jí Wāng Lún sòng wǒ qíng)

“- Langar ko'tarib Li Bo qayiq ustida...

To'satdan eshitdi- "qadamlar raqsin,"

"Shaftoli gul ko'lmak"- "ming chi"lar chuqur,

-Wang Lun va qalb tuyg'umning topmam qiyosin".

D.Sodiqova (Usmonova) tarjiması

Ushbu she'rdagi birinchi va ikkinchi qatorlardagi 行 (xíng) va 声 (shēng) so'zlari ichki qofiya (internal rhyme) hosil qilsa, birinchi va to'rtinchi qatorlardagi 行 (xíng) va 情 (qíng) so'zlari oxirgi qofiya (end rhyme) bo'lib kelgan. Bu qofiyalar she'rga musiqiy ritm va oqimlilik bag'ishlaydi, o'quvchining uni o'qishini osonlashtiradi.

Xitoy tilining monosillabik tuzilishi va tonal xususiyatlari tufayli G'arb tillaridagi kabi aniq alliteratsiya va assonans kam uchrasa-da, tovushlarning takrori orqali yuzaga keladigan fonetik uyg'unlik mavjud. Yuqoridagi "忽闻岸上踏歌声 (shēng)" jumlasida, "sh" va "ng" tovushlarining takrorlanishi (agar uni fonetik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilsak) alliteratsiyaga o'xshash hodisani yaratishi mumkin, bu esa she'rning eshitalishiga go'zallik qo'shadi.

"桃花潭水深千尺" (Táo huā tán shuǐ shēn qiān chǐ). Bu qatorda "a" unli fonemasining bir necha bor takrorlanishi (tao hua tan shuǐ) assonans hodisasini yuzaga keltiradi. Bu unli tovushlar she'rga yengil, ochiq va kenglik hissiyotini beradi, suvning silliq oqimi va chuqurligini fonetik jihatdan ifodalashga yordam beradi.

Li Bo she'riyatining eng kuchli jihatlaridan biri uning obrazlilik va so'z tanlovi mahoratidir. U sodda so'zlar bilan chuqur ma'nolarni va ulug'vor tasvirlarni yaratadi. Li Bo tabiatga bo'lgan muhabbati bilan tanilgan. Uning she'rlarida tog'lar, daryolar, sharsharalar, oy va may obrazlari tez-tez uchraydi va ular ko'pincha ramziy ma'nolarga ega bo'ladi.

Yana bir she'ri: "望庐山瀑布" Wang Lu shan pu bu

Lu shan sharsharasiga boqib...

“日照香炉 生紫烟           ri zhao Xiang lu sheng zi yan,  
遥看瀑布挂前川           yao kan pu bu gua qian chuan  
飞流直下三千尺           fei liu zhi xia san qian chi,  
疑是银河落九天           yi shi yin he luo jiu tian.”

Kunduz Siang lu toqida siyohrang bug' tug'ildi,

Uzoqlardan qarasang: ko'kdan oqar bir daryo...

Eng yuksak cho'qqilardan uchib oqib tushmoqda

To'qqizinchi osmondan yulduz yog'ilar go'yo\*...

D.Sodiqova (Usmonova) tarjiması

“飞流直下三千尺,疑是银河落九天” bu qatorda shoir metafora orqali sharsharaning ulug'vorligini va samoviy go'zalligini tasvirlaydi. "飞流" (fēi liú - uchib oquvchi) so'zi sharsharaning tez va shiddatli harakatini jonli tasvirlaydi.

Shuningdek, Li Bo she'rlarida sonlar, ayniqsa katta sonlar, ko'pincha aniq miqdorni emas, balki cheksizlik, ulug'vorlik yoki hissiy kuchni ifodalash uchun giperbola (exaggeration) sifatida qo'llaniladi:

"Lushan sharsharasiga boqib" she'rida "飞流直下三千尺 (Fēi liú zhí xià sān qiān chǐ)" – "uch ming chi" balandlikdan pastga oqar". Bu yerda "uch ming chi" yoki "ming chi" aynan o'z ma'nosida kelmagan. Ular sharsharaning yoki ko'ning chuqurligi va ulug'vorligiga alohida urg'u berish (emphasis) uchun qo'llanilgan poetik vositalardir. Bu miqdoriy referensiya emas, balki ekspressiv ma'noni tashishga xizmat qiladi.

"Vang Lunga tuxfa" she'rida "桃花潭水深千尺 (Táo huā tán shuǐ shēn qiān chǐ)" – "ming chi chuqurlikdagi shaftoli gul ko'li" badiiy tasviri ham she'rga alohida ekspressivlik bag'ishlash maqsadida qo'llanilgan.

Boshqa bir mashhur satri:"白发三千丈" (bái fà sān qiān zhàng - oq soch uch ming zhang) kabi ifodalar ham mubolag'aning yorqin namunasi sanaladi.

Li Bo she'ridagi olmoshlar she'rga subyektivlik va shaxsiy hissiyot bag'ishlaydi. "Vang Lunni kuzatish" she'rida "李白" (Li Bo – uchinchi shaxs) va "我" (wǒ – men, birinchi shaxs) olmoshlarining takrorlanishi diqqatga sazovordir. Dastlab shoir o'ziga uchinchi shaxsda murojaat qilsa, she'r so'nggida "men", "mening qalb tuyg'um" deya e'tirof keltiradi. Bu narrativ perspektivaning o'zgarishi she'rga o'ziga xoslik bag'ishlab, shaxsiy hissiyotlarning chuqurligini ta'kidlaydi.

Li Bo she'riyatining sintaktik xususiyatlari uning ta'sirchanligini, mantiqiy oqimini va emotsional intensivligini ta'minlaydi. Xitoy klassik she'riyatining muhim xususiyatlaridan biri parallelizmdir (sintaktik parallelizm - 对仗 - Duìzhàng). Ikki yoki undan ortiq qatorlarning grammatik tuzilishi, so'z turkumlari va xatto tonlari bir-biriga mos kelishi bilan

shakllanadi. Bu she'rga simmetriya, ritm va mantiqiy muvozanat baxsh etadi:

“静夜思” Jing ye si. “Sokin tundagi o'ylarim”

床前明月光, Chuang qian ming yue guang

疑是地上霜。 Yi shi di shang shuang

举头望明月, Ju tou wang ming yue

低头思故乡。 Di tou si gu xiang.

Ushbu she'r 李白 Li Baining eng mashhur she'rlaridan biridir.

“Yotog'im ustida Oying shu'lasi

Balki bu qirovdir, o'zim bilmayman,

Boshim tutib Oyga oynadan boqib,

Boshim egib, Vatan, seni eslayman...”

D.Sodiqova (Usmonova) tarjimasi

Oxirgi ikki qatorda she'rning ta'sirchanligini ta'minlash uchun ekspressivlikning sintaktik gradatsiya shaklidan ham foydalanilgan deyishimiz mumkin. Ushbu jumlada harakatlar ketma-ketligi asosida mohiyatiga ko'ra ko'tariluvchi gradatsiya, ifoda usuliga ko'ra mantiqiy, ifoda materialiga ko'ra esa, leksik gradatsiya qo'llanilgan. 故乡 gu xiang va 月 yue so'zlari bu yerda ayni bir ma'noda qo'llanilgan. Shoir bu ikki so'zni o'quvchi e'tiboriga sinonim sifatida namoyon etgan. Ammo “Oy” timsolida shoir ushalmagan orzularining ro'yobini ham ko'radi. Vatandan yiroqlik, ayriliq hissi esa uni chuqur iztirobga soladi. Li Boning ushbu mashhur she'rida ham alliteratsiya hodisasiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, so'nggi ana shu ikki qatorda badiiy matnning sintaktik xususiyatlaridan yana biri- antitezani ham kuzatish mumkin. Bu yerdagi boshni ko'tarish va egish, Oyga yuzlanish-orzular ro'yobiga intilish va Vatanni yodga olish- ayriliqdan azob chekish bir-biriga zid ma'noda qo'llanilgan. Bular kontekstual antonim fe'llardir. Keltirilgan zidlik asosidagi birliklar xiazmatik konstruksiya shaklida kelib, lingvistik kontrastlikni yanada oshirgan. Xiazm konstruksiyali gaplarning asosiy maqsadi keyingi gapda berilgan bo'lib, birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma'noni bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi. “Xiazm-poetik” nutqda uslubiy-semantik (ikki komponent o'zaro zidlik kasb etadi va biri-birini to'ldiradi), ekspressiv (tinglovchiga zavq

beradi va tez yodida qoladi) va evfonik (ohangdoshlik, xiazmni yuzaga keltirgan bo'laklar o'zaro o'rin va vazifa jihatdan almashinganda ohang ham shunga mos tarzda almashinib boradi) vazifalarni bajaradi .

Li Bo she'riyati o'zining fonetik evfoniyasi, leksik-semantik boyligi va sintaktik dinamikasi bilan Xitoy adabiy tilining eng yorqin namunasidir. Uning asarlaridagi alliteratsiya va assonans kabi tovush takrorlari she'rlarga musiqiy ohang bag'ishlasa, jonli obrazlar, metaforalar, giperbolalar va individual olmoshlar uning so'z tanlovining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Li Bo tilshunoslik vositalaridan nafaqat ma'lumot berish, balki ularni poetik funksiya darajasiga ko'tarish orqali noyob badiiy dunyo yaratgan. Li Bo ijodi Xitoy tilining badiiy salohiyatining cheksizligini isbotlovchi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik uchun qimmatli tadqiqot obyekti bo'lib qolaveradi.

## REFERENCES

[1] – Йўлдашев М. Бадий матнинг лисоний таҳлили.-Т: «Алишер Навоий » номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. 111 бет.

[2] – Usmanova D.A. “Li Bo VA Du Fu she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari tahlili”. mag. diss. –Т.: 2016.

[3] –周勋初.同强.李白杜甫.-南京：南京大学出版社，2010.